

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HARBIY SAN'ATI

Tulyaganov Shakir Urdavaevich
O'R QK Akademiyasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk shoir, olim va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning harbiy san'ati haqida fikr va mulohazalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Vatan, vatanparvarlik, Jang, qamal, axloq, namuna, qahramonlik, jasorat, mahoraba.*


Ajdodlarimizning harbiy salohiyati tarixini o'rganish yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otishda alohida ahamiyatga ega. Binobarin, millatimizning harbiy tarixi deyarli o'rganilgan emas. Birgina Bobur harbiy mahorati ko'plab tadqiqotlarga yetarli material bera oladi. Bu masalalarni Boburning mohir adib, shoir, olim, ensiklopedik bilim sohibi sifatlari bilan hamohang o'rganish, ayniqsa, yanada katta samara beradi.

Tarixda o'tgan harbiy muhorabalar sirlari, armiyani saqlash, tartib bilan ish yuritish, uni yangi aslahalar bilan boyitish tajribalari bugungi yosh askaru zobitlarimizda Vatanga muhabbat, o'tmishimizdan g'urur, yangilik yaratishga havas uyg'otishi shubhasiz. Ayniqsa, Amir Temur va Zahiriddin Boburning harbiy mahoratini, ularning yuksak jang tajribalarini imkon qadar o'rganib, mustaqil yurtimiz mudofaa tarixining ayrim sahifalarini to'ldirish dolzarb vazifalardandir.

Zahiriddin Muhammad Bobur butun Osiyo tamadduniga ulkan ta'sir ko'rsatgan shaxslardan biridir. U harbiy san'atni to'la egallagan o'z zamonasining mashhur lashkarboshilaridan biri bo'lgan. Shu bilan birga, e'tiqodi mustahkam harbiy qobiliyatga ega bo'lib tadbirkor, ehtiyotkor va epchil sarkarda edi. Bobur ayni mana shunday yuksak fazilatli sarkarda va podshoh bo'lgani uchun ham Hindistondan buyuk mamlakat tarixida o'zidan o'chmas iz qoldirdi.

«Boburnoma»ni har safar o'qiganimizda, u dili pok, e'tiqodi naqadar mustahkam, shijoatli, mard va bahodir inson bo'lgani o'z isbotini topaveradi. Bobur har bir tadbirda, davlat ishining har bir sohasida faqat Yaratgandan najot so'raydi hamda ixlos bilan ish boshlaydi.

Boburning muhoraba maydonidagi g'alabalarini ta'minlagan omillardan biri, balki eng muhimi, uning razvedka xizmatidan foydalanish



qobiliyatidir. Ayni shu mahorat minglab lashkarlarni o'lim balosidan asrashda, urushni o'z foydasiga hal qilishda, qolaversa, atrofidagi kishilar ruhiyati, shaxsiyatini yanada yaxshiroq anglashida, dushman niyati – sir-asrordan avvalroq voqif bo'lishda Boburga qo'l kelgan.

Ta'kidlash joizki, razvedka xizmati tarixi uzoq o'tmishlarga borib taqaladi. Undan oqilona, taktik jihatdan pishiq foydalangan shaxsgina yuksak natijalarga erishgan. Shoh va sarkarda Boburning yuksak mantiqiy tahlili, urush sharoitini yaxshi anglashi, yashindek tez xulosaga kelishi, razvedka xizmatiga o'z



fursatida murojaat etishi va qariyb adashmaganligi kishini hayratga soladi.

1503-1504 yilgi voqealar. Bobur Movarounnahrda noumid bo'lib, Kobulga yuzlanib, Hisor viloyatining Iloq yaylovlarini kezib, taqdir bundan keyin unga qanday kunlarni ravo ko'rishini o'y-xayollaridan o'tkazayotgan murakkab davr edi. Yosh Bobur bu yurtlarda hukmronlik qilayotgan Hisor begi, keyinroq o'zining ashaddiy dushmani bo'lgan Xisravshoh va uning saltanati haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun Mullo Boboyi Pashog'ariyni «elchilikka» yuboradi. Boburning bundan maqsadi elchi yo'llashgina emas, zarur ma'lumotga ega bo'lish edi. U odamlar orasida bo'lib, ayrim zarur ma'lumotlarni yetkazgan.

O'sha vaqtda Bobur o'z lashkarlarining ko'p qismidan ayrilgan, 200-300 askar va beklari bilan qolib, himoyaga o'ta muhtoj edi. Bu paytda temuriy shahzodalar va ularning beklari orasida lashkarlarining bir bek yoki sultondan ikkinchisiga guruh-guruh bo'lib o'tishi oddiy hol bo'lgan. Bunda iqtisodiy, ma'naviy, maishiy jihatlar, albatta, omon qolib lashkar safida bo'lish masalasi asosiy omillardan bo'lgan. Shu bois Bobur uchun Xisravshoh lashkarlarining kayfiyatini bilish muhim bo'lgan va u bu vazifani razvedka xizmatiga yuklagan. Lekin natijadan unchalik ko'ngli to'lmagan. Zarur ma'lumotga ega bo'la olmagan Bobur noiloj Kohmard va Bomiyon tomonga ravona bo'ladi.

Yana bir misol Xisravshohning inisi Boqi Chag'oniyoniyning Boburga yetkazgan razvedka xabari bilan bog'liq. Afg'onistonda o'z hukmronligi asosini solayotgan Bobur begona yurtdagi shahar, qishloq, o'rmonzor, ko'cha va pastko'cha, daryo va soylar xususiyatini juda sinchkovlik bilan o'rganadi. Ayniqsa, bu lashkar xavfsizligi, saltanat taqdiri bilan bog'liq bo'lsa, Boburning sinchkovlik qobiliyati yanada oshgan, ehtiyot choralarini ko'rishga kirishgan. Hali Boburning Kobul hokimiyati mustahkam shakllanmagan bir paytda,

atrofidagi do'stlari ham dushman ishini qilganda ularning har bir harakatini o'rganish, keyin xulosa chiqarish benihoya muhim edi.

Bu uzoq o'lkalarda Amir Temur imperiyasini tiklashdek orzusi amalga oshganligidan shod bo'lgan davri. Biroq bu paytda uning hukmi Hindistonning barcha o'lkalariga to'liq o'tmas, qarshilik ko'rsatayotgan hind rojalari, lashkar boshliqlari hali ancha tashvishlar orttirar edi. Bu vaqtda Boburning harbiy mahorati yetilgan, u yurt olish uchun har bir xabar, ma'lumotdan borgan sari unumli foydalanar, hind yerida tezroq mustahkam, har qanday ixtiloflardan xoli davlatni tuzishga oshiqar edi. Ana shunday paytda Bobur sheriklarining oldiga, Ko'h degan joyga kema bilan yetib keladi. Uning kayfiyati yaxshi, ruhi g'alabalar nashidasidan ko'tarinki edi. Urush oralig'ida, isyonchi hindular, afg'onlarning to'satdan qiladigan hujumlari vaziyatida u kurashchilar musobaqasini o'tkazgan, hatto bu sport tadbiri yanada jonli o'tishini istab, o'zi ta'kidlaganidek, «xilofi qoida» «avval zo'roqlarni» maydonga chorlagan. Xullas, bu payt Bobur ruhiyatida kam sodir bo'ladigan xursandlik dami bo'lgan.

Biroq bu kayfiyatni Sulton Muhammad baxshi keltirgan razvedka ma'lumoti o'zgartiradi. Hayot nashidasidan sarmast Bobur o'sha zahotiy oq shoh Boburga aylanadi. Shu jarayonda «Sulton Iskandarning o'g'li Mahmudxonningkim, Sulton Mahmud derlar edi, buzulg'onining xabarini kelturur». Demak, Boburning razvedkasi oldin uning tomoniga o'tgan Sulton Mahmudxonning «buzulg'onini» yetkazgan, ya'ni u o'z va'dasidan qaytib, Boburga nisbatan dushmanlik kayfiyatini ixtiyor etgan.

Quyidagi misollar yuqoridagidek katta siyosiy ahamiyatga molik bo'lmasada, muhoraba taqdirini belgilashda muhim o'rin egallagan. 1525 yilgi muhorabalar Boburni anchagina charchatgan bo'lsa ham, yonida to'ng'ich o'g'li Humoyun mardonavor kurashib, ko'pgina asirlarni, qo'lga kiritilgan fillarni olib kelib mulozamat qilganligi uning ruhiyatini ko'targan edi. Lekin Bobur raqibi Ibrohim Lo'diyning sir-asroridan, harbiy imkoniyatidan kengroq xabardor bo'lishni maqsad qilar ekan, qanday bo'lmasin, dushman orasidan «til» olib kelishni buyuradi: «Ul yurttan ko'chub, Shohobod kelduk. Til tutar uchun Sulton Ibrohimning o'rdusig'a kishi yiborib, necha kun bu yurttan tavaqquf bo'ldi». Demak, Bobur hatto razvedka xabarini kutib, bu joyda bir necha kun qolib ketgan. Uning bu sabri o'z natijasini bergan. U lashkarlari va safdoshlari bilan xavfsiz yo'lni tanlab harakat qilgan. Lekin bu joyga yetib kelgan zahoti yana bir kishisini razvedkaga, yana «til» tutib kelishga jo'natgan: «Ibrohimning o'rdusidin ham mutavotir xabarlar kela boshladikim, bir kuruh-ikki kuruh



ko'chub har yurtta ikki-uch kun maqom qila-qila keladur. Biz ham mutavajjih bo'lub, Shohoboddin ora ikki qo'nub, Juun daryosining yoqosig'a Sarsava to'g'risi kelib tushtuk. Xoja Kalonning navkari Haydarqulini til tuta yiborildi».

Boburning bu galgi tirishqoqligi, maqsad sari intilishi, yuksak razvedka qobiliyati zarur natijani bergan. Haydarquli keltirgan xabar Ibrohim Lo'diy bilan bo'lgan jang muvaffaqiyatini ta'minlagan. Bu xabarda dushmanning harbiy imkoniyati, armiya saflarining joylanishi va soni, lashkarlar orasidagi o'zaro



munosabat, hatto ularning qaysi holatda o'tirib-turishlarigacha tafsiloti bilan yetkazilgan edi. Bobur ushbu ma'lumotni olar ekan, hujumga o'tib, o'zining eng ko'zga ko'ringan sarlashkarlari Chin Temur Sulton, Muhammad Sulton, Sultonim Junayd, Mir Husayn va boshqalarni bu muhorabaga safarbar etadi. Natija uning ko'nglidagidan ham yaxshi bo'ladi. Bobur muhorabalarda juda katta yutuqqa erishadi, o'zi tashabbus ko'rsatib Usta Aliquli to'pchi bilan yaratgan to'plarini ishga solib, Ibrohim Lo'diy ustidan mutlaq g'alaba qozonadi. Bu natijalarni qo'lga kiritishda, albatta, bevosita uning razvedkaga oid qobiliyatining ham muhim hissasi bo'lgan.

Zahiriddin Bobur Hindistonni tasarrufiga kiritgunga qadar, endi qirq yoshni qoralayotgan pallada yurt olib yurt bergan, muhorabalarda suyagi qotgan, do'st vafosidan ko'ra atrofidagilarning xiyonati, bevafoigidan ko'p ozor chekkan sarkarda edi. Uning yagona maqsadi bobosi Amir Temurning bepoyon saltanatini asrash, ko'pincha o'zlarining tor manfaatlarini ko'zlab, nizo-janjallar girdobiga tushayotgan taxtparast beklar boshini birlashtirish edi.

Bobur Hindistonga yurish qilgunga qadar, avval Movarounnahrda Ahmad Tanbal, keyinchalik Xisravshoh, Shayboniyxon, Buxoro uchun kurashda Abdullaxon bilan jang qilgan, g'alabalar nashidasini surgan, mag'lubiyatlar alamini tortgan - ulkan muhoraba maktabini o'tagan. Bobur yuz-yuz ellik ming askar, ayniqsa, ikki mingta jangovar filga (ta'bir joiz bo'lsa, bu fillar o'sha paytda muhoraba maydonida bugungi tank vazifasini o'tagan) ega hind sarkardasi Ibrohim Lo'diy armiyasiga qarshi nisbatan kam sonli lashkar bilan kurashib, g'alaba qozongan.

Bu janglarda Bobur tufang mavqeiga katta e'tibor beradi. U, birinchi galda, hind, pushtu va balujlarning jang maydonida hali bu aslahaga duch

kelishmaganini bilib, undan ruhiy ta'sir vositasi sifatida ham foydalanadi. Kashmir yaqinidagi Bajavr jangida uning tufangchilari shijoat ko'rsatib, g'animni tahlikaga solib qo'yishadi. Bu esa Boburga yanada mukammalroq qurol yaratish g'oyasini beradi: «Bajavr eli chun tufangni ko'rmaydur edilar, tufang unidin hech parvoe qilmadilar, balki tufang unini eshitgach tamasxur qilib, muqobalada shani' harakatlar qilurlar edi. O'shal kuni Ustod Aliquli besh kishini tufang bila otib yiqdi. O'zga tufangandozlar ham tufang otmoqta bisyor jalodat ko'rsatib, yaxshilab ottilar. Kalqondin, jibadin, govsardin o'tkara-o'tkara, yiqita-yiqita ottilar. Oqshomg'acha shoyadkim, yetti-sekkiz-o'n bajavriy tufang bila yiqildi. Andin so'ngra andoq edikim, tufangning zarbidin bosh chiqara olmaslar edi».

Yuqoridagi parchadan muhorabada tufangchilar yaxshi harakat qilishgani, natijadan Boburning quvongani ko'rinib turibdi. Biroq uning xayoliga tufangdan ko'ra murakkabroq aslaha yaratish fikri keladi va izlanadi. U Xuroson va Movarounnahrdagi janglarda «Rum dasturi bila» urush olib borgan. Bu uslubdagi jangda harbiy arobalardan foydalanish ko'zda tutilgan. Shu dasturga Bobur yangilik kiritishga oshiqadi: tufangchilarning jang maydonidagi o'rnini almashtirib, ulardan oldin yangi ixtirosi bo'lgan arobalarni qo'yadi. Bu yangilik avvalgi tufangandozlar ko'rsatgan jasoratdan ko'ra samaraliroq bo'ladi va Boburga yangi izlanishlar eshigini ochadi: «Rum dasturi bila arobalarning orasida zanjir o'rniga... arg'amchilar eshib, bir-biriga bog'laydilar. Har ikki aroba orasida olti-yetti to'ra bo'lg'ay. Tufangandozlar bu aroba va to'ralarning keynida turub, tufang otqaylar. Bu asbobning tartibi jihatidin besh-olti kun bu yurtda tavaqquf bo'lduk».

Zahiriddin Bobur harbiy qurolni yanada takomillashtirish, «farangi» otish ustida o'ylay boshlaydi. «Farangi», bugungi ibora bilan aytganda, o'q otar to'p bo'lib, birinchi marta Bobur tomonidan hind muhorabasida qo'llanilgan. Bundan oldin ham bu qurolning odmiroq nusxasidan foydalanilgan. Bobur tufangni takomillashtirish, dushmanning kengroq maydondagi safiga zarba beradigan farangiy qurol yasashga astoydil kirishadi.

Shunday qilib, 1525 yil voqealari bayonidan boshlab, «Boburnoma» sahifalarida Ustod Aliquli - harbiy to'p yasovchi usta nomi tez-tez keladi: «Ustod Aliquli ham g'ulning oldidin necha qatla yaxshi farangilar otti. Mustafo to'pchilari ham g'ulning so'l qo'lidan aroba ustidagi zarbzanzilar bila yaxshi zarbzanzilar otti». Mazkur parchadagi bir jihatga e'tibor beraylik: Bobur harbiy aslahalari qatoriga endi arobalarga o'rnatilgan zarbzanz qurol ham qo'shilgan.

Tufang, to'p, zarbzanzlarning dushman askarlarini vahimaga solgani Boburda yangi g'oyalarni amalga oshirish ishtiyoqini tug'diradi va bu ishning ustasi Ustod Aliquli bilan birga mutlaqo yangi qurol - artilleriya aslahasining ilk

namunasini yaratishga kirishadi. Boburning bu ishni oxiriga yetkazgunga qadar sabr-bardosh, chidam, uzluksiz izlanish olib borgani g'oyat ibratlidir.

Hindistondagi Biyana qo'rg'onini egallash ancha mushkul kechadi. Qo'rg'onning balandligi, ichkariga kirishning mushkulligi bor harbiy imkoniyat bilan uni egallashga yo'l bermaydi. Shunda Bobur yangi qurolini ma'lum bir joyga o'rnatib, katta hajmdagi nishon o'qini uzoqroq masofaga yetkazadigan uskuna ustida ish boshlaydi. Bu g'oyani Ustod Aliquliga aytib, topshiriq beradi. Qisqa vaqt ichida Ustod Aliquli uskuna majmuasi bilan tayyor bo'lganini bildiradi. Bobur bu aslahaning «qozon quyaringing tafarrujiga bordik», deb yozadi. Bunda «qozon» to'pning poroxxonasi bo'lib, uning chidamliligi, hisob-kitobi (o'tga dosh berish darajasi, tebranish holati, o'qni aniq masofa va mo'ljalga yetkaza bilishi va boshqalar) aniq bo'lishi lozim edi.

Xullas, biz Zahiriddin Boburning harbiy mahoratiga oid bir jihatni ko'rib chiqishga harakat qildik. Bu bizga buyuk vatandoshimiz umr sahifasining bir pallasiga nazar solish imkonini berdi.

Boburshohning yuragi ba'zan Vatanni - Andijonni qo'msab tursa ham, vaqti soati kelib boqiy dunyoga ketgunicha hayotining qolgan qismini Hindistonda bunyodkorlik, davlat va ma'muriy ishlarni odilona hal qilish bilan o'tkazdi. Boburiylar butun dunyoga mashhur bo'lgan tarixiy obidalarni bunyod etdilar, ular hozirda ham dunyoni lol qoldirib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Voxidov R. Biz bilgan va bilmagan Bobur (Adabiy o'ylar).- T.: Manaviyat 1999. 31-38 b.
2. Fayziev T. Zahiriddin Muxammad Bobur va uning avlodlari (Boburiylar sulolasining qisqacha shajara tarixi) - T.«Yozuvchi» nashriyoti 1996. 12-29 b.
3. Qudratullaev H. Boburning razvedka mahorati. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2004 yil 44-son.
4. Азимджанова С. А. Государство Бабур в Кабуле и в Индии. - М.: Наука, 1977. - 176 с.
5. G'aybulloh As-Salom, Ne'matulloh Otajon, Jahongashta "Boburnoma", T, 1996.
6. Mashrabov Z., Shokarimov S., Asrlarni bo'yлагan Bobur. - T, 1997.
7. Satimov G'. Boburiyzodalar. -T. "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2016. - 16,17 b.
8. Mirzayev I. Bobur ma'rifati. -T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1996. – 13b.